

Jumaniyozov Jasur

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika:
Surdopedagogika yo'nalishi 2-bosqich, 24/1 guruh magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maxsus pedagogika fanida inklyuziv ta'limni tashkil etishning nazariy va huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi hamda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunlar asosida inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish zaruriyati bilan belgilanadi. Maqolada ilmiy manbalar, davlat qarorlari va amaliy tajriba tahlili orqali inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar, o'qituvchilarning kompetensiyalari va metodik yondashuvlar o'rganiladi. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'limning milliy tizimini takomillashtirish hamda maxsus pedagogik jarayonda individual yondashuv tamoyilini kuchaytirish yo'llarini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, maxsus pedagogika, integratsiya, individual yondashuv, pedagogik tamoyil.*

KIRISH (Introduction)

So'nggi yillarda ta'lim tizimida insonparvarlik, adolat va teng imkoniyatlar tamoyillariga asoslangan yondashuvlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shulardan biri — inklyuziv ta'lim konsepsiyasidir. Inklyuziv ta'lim deganda barcha bolalar, jumladan, maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan shaxslar uchun umumiy ta'lim muassasalarida teng sharoitda o'qish, rivojlanish va ijtimoiy integratsiyaga erishish imkonini beruvchi tizim tushuniladi.²⁰ Bu yo'nalish maxsus pedagogikaning asosiy tadqiqot obyekti sifatida e'tirof etilib, zamonaviy pedagogik nazariya va amaliyotning ustuvor yo'nalishiga aylangan.

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-637)da birinchi marotaba "inklyuziv ta'lim" atamasi huquqiy jihatdan mustahkamlandi.²¹ Mazkur qonunning 20-moddasida maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning ta'lim olish huquqi, ularni umumiy ta'lim muassasalarida o'qitish tartibi va ularning rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratish kafolatlandi. Shuningdek, 2020-yil 15-oktabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun²² (O'RQ-641)da ham nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish,

²⁰ Shodiyeva D.Q., Kubayeva M.B. "Inclusive Education: Essence, Significance and Development Prospects"

²¹ O'zbekiston Respublikasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-637). 1-5-8-20-moddalar

²² Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun 2020-yil 15-oktabrdagi

mehnat qilish va jamiyat hayotida to'liq ishtirok etish huquqlari mustahkamlab qo'yilgan.

Mazkur qonunlarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida 2021-yil 12-oktabrda Vazirlar Mahkamasining 638-sonli qarori qabul qilinib, unda inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi, shuningdek, psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Shu bilan birga, 2021-yil 13-dekabrda PQ-40-sonli Prezident qarori orqali nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va inklyuziv ta'limni rivojlantirishning kompleks choralari belgilandi.²³ Ushbu hujjatlar O'zbekiston ta'lim tizimida yangi bosqichni boshlab berdi — ya'ni, maxsus ehtiyojga ega o'quvchilarni umumta'lim muhitiga integratsiya qilish va pedagogik yondashuvlarni shaxsga yo'naltirish.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalasi xalqaro miqyosda ham keng e'tirof etilgan. UNESCO (2020) va UNICEF (2022) hisobotlarida qayd etilishicha, inklyuziv ta'lim — bu faqatgina ijtimoiy adolat masalasi emas, balki ta'lim sifatini oshirish, barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishning eng muhim vositasidir.²⁴ Shu jihatdan, O'zbekistonning milliy qonunchiligini xalqaro me'yorlar bilan uyg'unlashtirish jarayoni inklyuziv ta'limni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Shu o'rinda, tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, mamlakatimizda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha huquqiy va tashkiliy asoslar yaratilgan bo'lsa-da, amaliyotda pedagogik kadrlarning tayyorgarlik darajasi, o'quv muassasalarining moddiy-texnik bazasi va metodik yondashuvlar tizimi hali to'liq shakllanmagan. Shu sababli, maxsus pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biri — inklyuziv ta'limni ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganish va uni samarali tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqishdir.

Maqolaning maqsadi — maxsus pedagogika fanida inklyuziv ta'limni tashkil etishning nazariy asoslarini tahlil qilish, uning metodologik tamoyillarini yoritish va milliy amaliyotdagi holatini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Inklyuziv ta'lim tushunchasining mohiyatini va uning maxsus pedagogika bilan uzviy bog'liqligini ochib berish;

Inklyuziv ta'limning huquqiy va tashkiliy asoslarini tahlil qilish;

O'zbekiston tajribasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish omillari va mavjud muammolarni aniqlash;

Maxsus pedagogika fanining inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishdagi rolini asoslash.

METODOLOGIYA (Methods)

²³ PQ-40-sonli Prezident qarori 2021-yil 13-dekabr

²⁴ UNESCO — "Inclusion in education"

Mazkur tadqiqotda inklyuziv ta'lim tizimining O'zbekiston sharoitidagi rivojlanish holati, huquqiy-me'yoriy asoslari hamda amaliyotdagi tatbiqi ilmiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida taqqoslash, tizimli tahlil, empirik ma'lumotlarni o'rganish, hamda deskriptiv metodlardan foydalanildi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim bo'yicha davlat siyosatini shakllantiruvchi asosiy hujjatlar — O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son), PQ-4860-sonli Qaror (2020-yil 13-oktabr) va PQ-264-son Farmon²⁵ (2022-yil 28-iyul) hamda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" normativ-huquqiy asos sifatida tahlil qilindi.²⁶

Tadqiqotda shuningdek, mahalliy va xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan loyihalar natijalari o'rganildi. Jumladan, UNICEF hamkorligida 2023–2024 o'quv yilida o'tkazilgan "Empowering Schools for a More Inclusive and Digital Future" loyihasi hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va Maktab ta'limi vazirligi tomonidan amalga oshirilgan 50 ta pilot maktabdagi inkluziv sinflar faoliyati tahlil qilindi. Bu ma'lumotlar empirik dalillar sifatida tadqiqotning nazariy asoslarini mustahkamladi.

Shuningdek, World Bank (2023), UNICEF (2024), va O'zbekiston Ta'lim vazirligi ma'lumotlarida keltirilgan statistik ko'rsatkichlar tadqiqot natijalarini aniqlashtirishda qo'llanildi. Ushbu manbalar orqali so'nggi yillarda inklyuziv ta'limning hududlar kesimidagi kengayish sur'atlari, mavjud infratuzilma, o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi va pedagogik yondashuvlar holati tahlil etildi.

Metodologik yondashuv sifatida kompleks tahliliy metod qo'llanilib, qonunchilik hujjatlari, xalqaro tajriba va mahalliy natijalar o'zaro solishtirildi. Bu orqali O'zbekiston ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni joriy etishdagi ilg'or jihatlar va mavjud muammolar ilmiy asosda o'rganildi

Shuningdek, PQ-264-son Farmon bilan "2022–2026-yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlangan bo'lib, unda har bir bola ta'lim olish huquqiga ega ekanligi hamda inklyuziv ta'limni milliy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylantirish chora-tadbirlari ko'zda tutilgan. Mazkur hujjatlar O'zbekistonda inklyuziv ta'lim siyosatining huquqiy, tashkiliy va metodologik asoslarini belgilab beradi.

Qo'shimcha sifatida, tizimli yondashuv usuli asosida maxsus pedagogika fanining inklyuziv ta'limni tashkil etishdagi o'rni, vazifalari va metodologik tamoyillari o'rganildi. Bu jarayonda o'qituvchi kompetensiyasi, o'quv muhiti, individual yondashuv va differensial o'qitish metodlari kabi komponentlar o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi.

²⁵ PQ-3775-son Qaror (2018-yil 26-iyun) — "Nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus ta'lim muassasalarini modernizatsiya qilish" to'g'risida.

²⁶ PQ-264-son Farmon (2022-yil 28-iyul) — "2022–2026-yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi"ni tasdiqlagan

Bundan tashari, qiyosiy-pedagogik tahlil yordamida O'zbekistonning inklyuziv ta'lim sohasidagi islohotlari xalqaro tajriba bilan solishtirildi. Jumladan, Finlyandiya, Yaponiya va Janubiy Koreya ta'lim tizimlaridagi inklyuziv yondashuvlar tahlil qilinib, ularning milliy amaliyotga mos jihatlari aniqlanib chiqildi. Tadqiqotning axborot manbasi sifatida ilmiy maqolalar, qonun hujjatlari, davlat dasturlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, shuningdek, amaliyotchi pedagoglar bilan olib borilgan suhbatlardan olingan ma'lumotlar xizmat qildi.

Natijalar va tahlil (Results and Discussion)

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishiga aylandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2020–2024-yillar davomida inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha sezilarli ijobiy siljishlar kuzatilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ–4860-son qarori ijrosi doirasida 2023–2024 o'quv yilida 530 ta umumiy ta'lim muassasasida 1 195 nafar nogironligi bo'lgan bola inklyuziv ta'lim bilan qamrab olingan. Bu raqam 2021-yilga nisbatan qariyb 2,3 barobar oshganini bildiradi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 1-moddasida inklyuziv ta'lim "ta'lim oluvchilarning jismoniy, aqliy, ijtimoiy yoki boshqa imkoniyatlaridan qat'i nazar, ularga ta'lim olish uchun teng imkoniyatlar yaratish tizimi" sifatida talqin etilgan. Shu bilan birga, 5-moddada ta'lim siyosatining asosiy tamoyillari qatorida ta'limning inklyuzivligi va insonparvarligi alohida ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, mazkur qonunning 8-moddasida "nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olishini tashkil etish, ularni jamiyat hayotiga to'liq jalb etish uchun zarur sharoitlarni yaratish hamda inklyuziv ta'lim muassasalarini rivojlantirish" ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. 28-moddada esa maxsus ta'limning mazmuni yoritilib, u inklyuziv muhitda ta'lim oluvchi bolalar uchun metodik, pedagogik va tashkiliy asoslarni belgilaydi.

UNICEF va Maktabgacha hamda Maktab ta'limi vazirligi hamkorligida amalga oshirilgan "Empowering Schools for a More Inclusive and Digital Future" loyihasi doirasida 50 ta pilot maktabda direktorlarga, o'qituvchilarga hamda psixologlarga mo'ljallangan treninglar o'tkazildi. Ushbu treninglar davomida o'qituvchilarning inklyuziv metodlarni qo'llash ko'nikmalari oshirildi, shuningdek, ta'lim muassasalarining raqamli muhitga moslashtirilishi bo'yicha yangi yondashuvlar ishlab chiqildi (UNICEF, 2024).²⁷

World Bank (2023) hisobotida qayd etilishicha, O'zbekiston hududlarida inklyuziv ta'limni tatbiq etishda infratuzilma va kadrlar salohiyatidagi farqlar mavjud. Ba'zi maktablarda maxsus jihozlar, liftlar, kirish yo'laklari va sanitar sharoitlar yetarli emas.²⁸ Biroq shu bilan birga, Toshkent shahri, Farg'ona va Navoiy viloyatlarida yangi

²⁷ UNICEF, "Empowering Schools for a More Inclusive and Digital Future"2024

²⁸ "World Bank highlights challenges faced by people with disabilities in Uzbekistan" maqolasi, 2023.

modeldagi “inklyuziv sinflar” tajriba tariqasida yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu hududlarda pedagogik yondashuvlar xalqaro standartlarga yaqinlashmoqda.

O‘rganilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, inklyuziv ta‘lim jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. 2024-yilda O‘zbekiston pedagogik oliy ta‘lim muassasalarida “Inklyuziv ta‘lim metodikasi” fanining joriy etilishi o‘qituvchilarning kompetensiyasini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq, ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning atigi 38 foizi inklyuziv muhitda dars o‘tish bo‘yicha maxsus treningdan o‘tgan. Tadqiqot natijalari shuni ham tasdiqlaydiki, ijtimoiy muhit omili, ota-onalarning munosabati va jamiyatdagi stereotiplar hali ham inklyuziv ta‘limni to‘liq joriy etish jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, nafaqat ta‘lim tizimini texnik jihatdan moslashtirish, balki jamiyatda ijobiy qarash va ijtimoiy qabul mexanizmlarini shakllantirish zarur. Bu borada ommaviy axborot vositalarida inklyuziv ta‘limni targ‘ib qiluvchi dasturlar va treninglar tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlillar O‘zbekistonda inklyuziv ta‘lim tizimi shakllanish bosqichida bo‘lsa-da, mavjud qonunchilik, xalqaro hamkorlik, va metodik qo‘llanmalar orqali bu sohada barqaror rivojlanish uchun zarur sharoitlar yaratilayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston ta‘lim tizimida inklyuziv ta‘limni joriy etish jarayoni so‘nggi yillarda sezilarli darajada faollashgan bo‘lsa-da, bu sohada hanuz yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mavjud yutuqlarga qaramay, inklyuziv ta‘limni to‘liq amalga oshirish uchun metodik, moddiy-texnik va psixologik tayyorgarlik jihatlarida qo‘shimcha chora-tadbirlar zarur. Mazkur holatni boshqa davlatlar tajribasi bilan taqqoslaganda, O‘zbekiston hali institutsional bosqichda ekanini ko‘rish mumkin. Masalan, Finlandiyada inklyuziv ta‘lim tizimi 1998-yildan boshlab “Support for Learning and School Attendance” dasturi orqali bosqichma-bosqich joriy etilgan. Bu tizimda har bir o‘quvchiga uch pog‘onali qo‘llab-quvvatlash modeli asosida yondashiladi: umumiy yordam, intensiv yordam va maxsus yordam. Ushbu yondashuv o‘quvchining individual ehtiyojini erta aniqlash va pedagogik yordamni moslashtirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston tajribasida ham shunday tizimni bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish zarurligi aniqlanmoqda.²⁹ Malayziyaning 2013-yilda qabul qilingan “Inclusive Education Programme” (IEP) modeli ham diqqatga sazovor.³⁰ Unga ko‘ra, har bir maxsus ehtiyojli bola umumta‘lim maktabida o‘qishi uchun “resource room” (resurs xonasi) va ko‘makchi o‘qituvchi instituti joriy etilgan. O‘zbekistonda ham 2023-yil holatiga ko‘ra 300 dan ortiq maktabda shunday xonalar tashkil etilgan bo‘lsa-da, malakali defektologlar va logopedlar yetishmovchiligi mavjud.

²⁹ Finnish National Agency for Education — Support to learning and pupil welfare system.

³⁰ Malaysia Education Blueprint 2013-2025. *Special Education Integrated Programme (SEIP)* va *Inclusive Education Programme (IEP)*

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda huquqiy baza mustahkam — "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020) va "Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi" (2021) bu yo'nalishning huquqiy poydevorini yaratgan. Ammo xalqaro tajriba bilan solishtirganda, psixologik tayyorgarlik, jamoatchilik ongini o'zgartirish va inklyuziv madaniyatni shakllantirish borasida hali katta ishlar qilish lozim. Yana bir muhim jihat — ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, inklyuziv ta'lim samaradorligi o'qituvchilarning empatiya darajasi, kommunikativ malakasi va differensial yondashuvni qo'llay olish ko'nikmalariga bevosita bog'liq. Shu bois, Finlandiya va Malayziya tajribalarida bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham o'qituvchilarni inklyuziv kompetensiyalar asosida tayyorlash dasturlarini kengaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Conclusion (Xulosa)

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish jarayoni bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda. Mavjud huquqiy ushbu yo'nalishda islohotlarning barqarorligini ta'minlamoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra, inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati pedagoglarning malakasi, metodik tayyorgarligi va inklyuziv muhitni shakllantirishdagi faol ishtirokiga bevosita bog'liqdir.

Xalqaro tajriba, xususan Finlandiya va Malayziya misollarida, erta tashxis va ko'p bosqichli yordam tizimi inklyuziv ta'limning samaradorligini oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'lgan. Shu bois O'zbekistonda ham o'qituvchilar tayyorlash tizimini takomillashtirish, resurs xonalar tarmog'ini kengaytirish va jamoatchilik ongini inklyuziv qadriyatlar ruhida shakllantirish dolzarb vazifadir.

Umuman olganda, inklyuziv ta'lim nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar, balki butun jamiyatning ijtimoiy birdamligini mustahkamlovchi, insonparvarlik tamoyillariga asoslangan zamonaviy ta'lim modelidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shodiyeva D.Q., Kubayeva M.B. "Inclusive Education: Essence, Significance and Development Prospects"
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-637)
3. PQ-4860-son Qaror (2020-yil 13-oktabr) — "Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida".
4. PQ-40-sonli Prezident qarori 2021-yil 13-dekabr
5. UNESCO — "Inclusion in education"
6. PQ-3775-son Qaror (2018-yil 26-iyun) — "Nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus ta'lim muassasalarini modernizatsiya qilish" to'g'risida.
7. PQ-264-son Farmon (2022-yil 28-iyul) — "2022–2026-yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi"ni tasdiqlagan

8. UNICEF, “Empowering Schools for a More Inclusive and Digital Future”2024
9. “World Bank highlights challenges faced by people with disabilities in Uzbekistan” maqolasi 2023.
10. Finnish National Agency for Education — Support to learning and pupil welfare system. https://www.oph.fi/en/education-and-qualifications/support-learning-and-pupil-welfare-system?utm_source=chatgpt.com
11. Malaysia Education Blueprint 2013-2025 *Special Education Integrated Programme (SEIP)* va *Inclusive Education Programme (IEP)*